




## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2021- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi



■ 2020-yil ■ 2021-yil

➤ 2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi **68,6** % ni tashkil etdi.

➤ Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **16,1** birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-sentabrda 8,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** marta ko'paydi.

### 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo  
34,2 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
30,7 %

Sanoat  
14,6 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatda  
7,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2792 ta qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2503 ta, sanoatda 1189 ta, yashash va ovqatlanishda 584 ta, qurilishda 326 ta, axborot va aloqada 96 ta tashkil etilgan.

**Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2020- y,	2021- y,	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	23362	31903	8541
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	3710	8163	4453
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YAHM	%	71,2	68,6	-3,2
Sanoat	%	30,7	24,7	-6,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,4	99,0	-0,4
Investitsiya	%	17,8	31,9	14,1
Qurilish	%	86,9	74,2	-12,7
Chakana savdo	%	93,0	91,1	-1,9
Xizmatlar	%	71,0	70,0	-1,0
Yuk tashish	%	88,0	86,7	-1,3
Yuk aylanmasi	%	90,5	86,4	-4,1
Yo'lovchi tashish	%	97,0	95,1	-1,9
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,7	96,9	-0,8
Eksport	%	57,0	39,1	-17,9
Import	%	37,2	56,8	19,6



**2021- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

**YAHM  
68,6 %**

**Savdo  
91,1 %**

**Sanoat  
24,7 %**

**Qurilish  
74,2 %**

**Investitsiya  
31,9 %**

**Eksport  
39,1 %**

**Xizmatlar  
70,0 %**


**Import  
56,8 %**

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	(+;-)
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3710</b>	<b>8163</b>	<b>4453</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	691	1274	583
Shahrisabz sh.	170	390	220
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	179	468	289
Dehqonobod	176	370	194
Qamashi	223	722	499
Qarshi	268	506	238
Koson	262	586	324
Kitob	209	686	477
Mirishkor	205	304	99
Muborak	131	264	133
Nishon	238	372	134
Kasbi	178	440	262
Chiroqchi	392	659	267
Shahrisabz	168	465	297
Yakkabog'	220	657	437



**2021- yil yanvar- sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri -15,6 %, Qamashi tumani - 8,8 %, hissalariga to'g'ri keldi,

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	farq, (+;-)
<b>Jami</b>	<b>3710</b>	<b>8163</b>	<b>4453</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	857	2503	1646
Sanoat	661	1189	528
Qurilish	274	326	52
Savdo	1405	2792	1387
Tashish va saqlash	80	70	-10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	123	584	461
Axborot va aloqa	52	96	44
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	77	89	12
Boshqa faoliyat turlari	181	514	333

**Ma'lumot uchun:** 2021– yilning yanvar- sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	Farqi (+;-)
Qarshi sh,	691	1274	583
Qamashi tumani	223	722	499
Kitob tumani	209	686	477
Chiroqchi tumani	392	659	267
Yakkabog' tumani	220	657	437
Koson tumani	262	586	324
Qarshi tumani,	268	506	238

2021- yilning yanvar-sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Qarshi shahrida - 1274 ta va Qamashi tumanida - 722 tani tashkil etdi.




**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**





2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 16,1 birlikni tashkil etdi,


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\***



2021- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida 23,4 birlik, Qarshi shahrida 21,8 birlik, Kitob tumanida 21,6 birlik, Muborak tumanida 19,5 birlik, Nishon tumanida 19,5 birlikni tashkil etgan, Kasbi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 11,2 birlikka to'g'ri keldi.


\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**2021- yilning yanvar- sentabrda har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida 23,4 birlik, Qarshi shahrida 21,8 birlik, Kitob tumanida 21,6 birlik, Nishon tumanida 19,5 birlik, Muborak tumanida 19,5 birlik, Koson tumanida esa 18,5 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori  
ko'rsatkich

- Mirishkor tumani
- 23,4 birlik.

O'rtacha  
ko'rsatkich

- Shahrisabz tumani
- 17,2 birlik.


Eng past  
ko'rsatkich

- Kasbi tumani
- 11,2 birlik.



Kichik tadbirkorlikning  
YAHMdagi ulushini dinamikasi,  
yanvar-sentabr holatiga ko'ra, %  
da

2021-yilning yanvar-sentabrda tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,6 % ni tashkil qildi. (2020-yilning yanvar-sentabrda 71,2 %).

YAHMda kichik beznis ulishi o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.



**Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)**



**2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
Qashqadaryo viloyati	<b>24,7</b>	<b>74,2</b>	<b>70,0</b>	<b>31,9</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh,	33,3	67,7	50,3	23,7
Shahrisabz sh,	79,0	61,6	75,8	96,2
<i>tumanlar</i>				
G'uzor	5,0	46,9	76,7	16,3
Dehqonobod	15,6	100,0	82,2	74,8
Qamashi	51,9	100,0	80,5	99,9
Qarshi	21,5	100,0	77,4	47,8
Koson	47,1	90,8	84,8	98,8
Kitob	98,2	100,0	86,1	42,7
Mirishkor	32,0	100,0	90,8	89,4
Muborak	21,6	34,8	61,6	11,9
Nishon	4,1	100,0	81,6	55,6
Kasbi	7,1	99,9	86,4	94,2
Chiroqchi	86,7	70,2	74,7	89,1
Shahrisabz	80,0	100,0	56,3	21,2
Yakkabog'	81,0	80,0	79,1	78,5

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Kitob (98,2 %),  
Chiroqchi (86,7 %),  
Yakkabog' (81,0 %),  
Shahrisabz (80,0 %),  
Shahrisabz sh (79,0 %)  
tumanlarida.


**Qurilishda-**

Dehqonobod (100,0 %),  
Qamashi (100,0 %),  
Qarshi (100,0 %),  
Kitob (100,0 %) va  
Mirishkor (100,0 %)  
tumanlarida.


**Xizmatlarda-**

Mirishkor (90,8 %),  
Kasbi (86,4 %),  
Kitob (86,1 %)  
Koson (84,8 %)  
Dehqonobod (82,2 %),  
Q a m a s h i (80,5 %)  
tumanlarida.

2021- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 70,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,1 % ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Dehqonobod va Yakkabog' tumanlarida - 100,0 %, Shahrisabz tumanida - 99,0 %, eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida - 11,9 % va Qarshi tumanida - 13,8 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 148,1 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 62,6 % ini tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Mirishkor va Shahrisabz tumanida -100,0 % ni, Qamashi tumanida - 99,6 eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 2,3 % ni tashkil etdi.




2021 - yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 3253,3 milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

**2021- yilning yanvar- sentabr hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahar (669,8 mlrd. soʻm), Chiroqchi (410,8 mlrd. soʻm) va Yakkabogʻ (340,3 mlrd. soʻm), tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Kasbi tumanida (57,7 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past boʻlib qolmoqda.



2021- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 24,7 foizni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar- sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kitob (98,2 foiz), Chiroqchi (86,7 foiz), Yakkabog' (81,0 foiz), Shahrisabz (80,0 foiz) tumanlari va Shahrisabz shahri (79,0 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Nishon (4,1 foiz), G'uzor (5,0 foiz), Kasbi (7,1 foiz), Dehqonobod (15,6 foiz) va Qarshi (21,5 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.




2021- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 9691,8 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,1 % ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 108,2 foizni tashkil qildi.

**2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (2435,9 mlrd. soʻm), Koson (1026,8 mlrd. soʻm) va Chiroqchi (999,4 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.




2021- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3494,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 74,2 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi.

**2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (887,1 mlrd. so'm), Chiroqchi (303,9 mlrd. so'm) va Kitob (303,4 mlrd. so'm) tumanlarda qayd etildi.


2021- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 6606,4 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 70,0 % ini tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 112,6 % oʻsish kuzatildi.



**2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Qarshi shahri (1280,9 mlrd. soʻm), Kitob (569,0 mlrd. soʻm), Koson (556,7 mlrd.soʻm) va Chiroqchi (432,3 mlrd.soʻm), tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 86,7 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyun (88,0 foiz) oylariga nisbatan -1,3 foizni tashkil qildi.


2021- yil yanvar- sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 86,4 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-iyun (90,5 foiz) oylariga nisbatan -4,1 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar- sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,1 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yil yanvar-iyun (97,0 foiz) oylariga nisbatan - 1,9 foizni tashkil qildi.



2021- yil yanvar- sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,9 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun (97,7 foiz) oylariga nisbatan - 0,8 foizni tashkil qildi.




2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 14,3 % (180 ta), sanoatda - 16,0 % (204 ta), qurilishda - 11,5 % (147 ta), savdoda - 37,3 % (477 ta), xizmatlar sohasida - 21,1 % (270 ta) ni tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.




**2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




**2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash, % da vaziyatini baholash,% da**



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021-yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda 54,9 % qurilishda 53,0 % ni va savdo sohasida 52,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 56,7 % ni, xizmatlarda 39,6 % ni, qurilishda 38,8 % ni, tashkil etdi.

**2021- yillar III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqbolli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni baholanishi, % da**



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqbolli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda sohasida 71,4 % ni, sanoat 68,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqbolli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 5,6 % ni, qurilishda 4,1 % ni tashkil etdi.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: B.Sherg'oziev

Tel: (75) 220-03-94